Demokratik huquqiy davlatning muhim asoslaridan biri – mustaqil va adolatli faoliyat yurituvchi sud hokimiyatining mavjudligidir. Sudyalar mustaqilligi masalasini tahlil qilishdan avval, “sud hokimiyati” tushunchasining mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Sud hokimiyati davlat mexanizmining eng asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, u hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiga ko‘ra, qonunchilik va ijro etuvchi hokimiyatlardan mustaqil ravishda o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Hokimiyatlar bo‘linishi doktrinasi genezisi antik davr siyosiy-falsafiy tafakkuriga borib taqaladi. Mazkur tarixiy bosqichda davlat funksiyalarining differensiyalashuvi, aralash va muvozanatlashgan boshqaruv tizimiga oid konseptual qarashlar shakllangan bo‘lib, ushbu g‘oyalar hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan (Vile, 1998). Xususan, Arastu o‘zining “Siyosat” asarida davlatning uchta elementi va vakolatlarini ifodalovchi idoralarni alohida ajratib ko‘rsatgan.

Birinchisi – urush va tinchlik masalalari, qonunlarni qabul qilish, o‘lim jazosi, badarg‘a va musodara qilish, shuningdek, rasmiy lavozimlarga tayinlash kabi vakolatlarga ega bo‘lgan xalq yi-

g‘inidir. Ikkinchisi – davlat organlari tizimi, ularning soni, tarkibi va vakolat doirasini belgilovchi ma‘muriy-boshqaruv elementidir. Uchinchisi esa odil sudlovni amalga oshiruvchi sudlar tizimini o‘z ichiga olgan (Aristotel, 1983). Shuni ta‘kidlash joizki, Aristotel davlatning ushbu uchta tarkibiy qismi bir-biridan mustaqil bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyani ilgari surmagan.

Aristotelning ushbu qarashlari ma‘lum ma‘noda Rim davlatchiligida o‘z aksini topgan. Zero, u yerda xalq yig‘ini, senat va davlat xizmatchilari (boshqaruvchilar) institutlari faoliyat yuritib, ular o‘zaro tiyib turish va muvozanat prinsipi asosida ish olib borgan. Biroq Rim imperiyasining barham topishi va Yevropaning mayda feodal davlatlarga bo‘linib ketishi natijasida, O‘rta asrlardan to XVIII asrga qadar davlat hokimiyati yagona merosxo‘r hukmdorlar qo‘lida to‘plandi. Bu davrda faqat XVI asrdagi ingliz parlamentarizmining rivojlanishini istisno tariqasida ko‘rsatib o‘tish mumkin (Ervin, 1970).

Yevropada diniy mafkura va feodal tuzumga qarshi kurashish barobarida, davlat va huquqning dunyoviy doktrinasini ishlab chiqishga alohida e‘tibor berila boshlandi. Xususan, Angliyada parlamentarizmning vujudga kelishi Uyg‘onish

davrida davlat hokimiyatini uchga bo'lish zarurligi haqidagi antik g'oyaning qayta jonlanishiga xizmat qildi. Bu qarashlar ingliz mutafakkiri Jon Lokkning "Davlat boshqaruvi to'g'risida ikkita traktat" asarida yangicha talqinda aks etdi. Mutafakkir davlat hokimiyatini uchta tarmoqqa – qonunchilik, ijro va federativ bo'g'inlarga ajratish g'oyasini ilgari surdi (Locke, 1988). Jon Lokk o'z ta'limotida sudlar mustaqil va xolis bo'lishi lozimligi haqida juda ko'p gapirgan bo'lsa-da, hokimiyatning mustaqil bo'g'inlari haqida so'z ketganda, sud hokimiyatini qonunchilik va ijro kabi alohida ajratib ko'rsatmaydi (Kalinina, 2014). U sud hokimiyatini ijro etuvchi hokimiyatning tarkibiy qismi sifatida talqin etgan.

Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi XVIII asrda fransuz mutafakkiri va huquqshunosi Sharl Lui de Monteskye tomonidan yanada kengroq o'rganildi hamda yangi konseptual g'oyalar bilan boyitildi. Jon Lokkdan farqli o'laroq, Monteskye davlat boshqaruvi tizimida sud hokimiyatini alohida tarmoq sifatida ajratib ko'rsatdi va uning mustaqilligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratdi. Aynan uning sa'y-harakatlari bilan sud tizimining mustaqil bo'g'in sifatida e'tirof etilishi mazkur nazariyaning mukammal shaklga kelishida hamda zamonaviy konstitutsiyaviy tamoyillarning poydevori yaratilishida muhim qadam bo'ldi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning barchasida sud hokimiyati o'z faoliyatini mustaqil tarzda amalga oshiradi. Zero, sudyalarning mustaqilligini ta'minlash uchun, eng avvalo, sud hokimiyatining o'zi mustaqil bo'lishi lozim. Sud hokimiyati haqiqatan ham mustaqil qaror qabul qila olishi uchun muayyan belgilar va xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. N.S. Kalinina sud hokimiyatining quyidagi o'ziga xos belgilarini ajratib ko'rsatadi: 1) sud hokimiyati – davlat hokimiyatining mustaqil tarmoqlaridan biri; 2) mazkur hokimiyat faqatgina sud tizimiga kiruvchi sudlarga tegishli; 3) sud hokimiyati o'z vakolaltlarini faqat o'zi amalga oshiradi; 4) mustaqillik, hech kimga bo'ysunmaslik va alohidalik xususiyatlariga ega; 5) odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha qonunda alohida protsessual tartib belgilangan; 6) sud hokimiyati faqat va faqat qonunga bo'ysunadi (Kalinina, 2014). Shuningdek, F.F. Muxitdinova sud hokimiyatini davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlaridan ajratib turuvchi quyidagi mezonlarni ilgari suradi: 1)

mustaqillik, muxtorlik hamda qonunchilik va ijro hokimiyatlari faoliyati ustidan nazorat funksiyalarining mavjudligi; 2) subyektlar tarkibini aniq belgilovchi institutsional xususiyat; 3) maxsus funksional yo'nalish – faqat odil sudlovni amalga oshirish (Mukhitdinova, 2012). Mutaxassislarining fikr-mulohazalari tahlili ahuni ko'rsatadiki, ular tomonidan qayd etilgan belgilar sud hokimiyatining mustaqil va samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashda fundamental ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Sudyalar mustaqilligi kafolatlarini o'rganishdan avval, "sud hokimiyati mustaqilligi" va "sudyaning shaxsiy mustaqilligi" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniqlashtirib olish lozim. Sud hokimiyatining ijtimoiy va huquqiy tabiatini, uning vazifalari hamda jamiyat hayotida tutgan o'rnini belgilash uchun ushbu toifalarni lingvistik va yuridik jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, "sud" so'zi o'zbek tilida keng ma'no-ga ega bo'lib, u kontekstga ko'ra "muassasa", "bino", "sud jarayoni", "hukm qilish", shuningdek, "sudya" yoki "sud hay'ati" tushunchalarining sinonimi sifatida ham qo'llanadi (Madvaliev, 2006). "Hokimiyat" atamasi esa davlatchilik, boshqaruv huquqi, siyosiy hukmronlik, davlat organlarining qonuniy vakolatlari hamda buyruq berish imkoniyati kabi ma'nolarni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 1/60-son qaroriga ko'ra sud hokimiyati – bu sudlarning Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi prinsipiga so'zsiz rioya etgan holda jinoiy, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha mutlaq vakolatidir (Supreme Court and Supreme Economic Court of the Republic of Uzbekistan, 1996). Demak, sud hokimiyati – davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i sifatida sudlarga qonun bilan yuklatilgan, muayyan toifadagi izlarni ko'rish va odil sudlovni amalga oshirish huquqi hamda majburiyatlari majmuidir.

Sudyalar mustaqilligi fenomenini o'rganishdan avval, "mustaqillik" tushunchasining o'zi nimani anglatishiga e'tibor qaratish lozim. Uman olganda, mustaqillik – muayyan subyektning boshqalarga tobe bo'lmasligi, alohida va muxtor maqomga ega ekanligini ifodalaydi. Huquqshunoslikda sud hokimiyati mustaqilligi va sudyalarning shaxsiy mustaqilligi bir-biriga uzviy bog'liq

bo'lsa-da, ular bir xil tushunchalar emas. Zamonaviy yuridik doktrinada sud hokimiyatining mustaqilligi ikki turga ajratiladi: institutsional mustaqillik va shaxsiy mustaqillik (Aripov, 2022).

Institutsional mustaqillik – sud tizimining davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlaridan to'liq muxtorligini anglatadi. Bu tushunchalar har qanday organ, mansabdor shaxs yoki institutlar tomonidan sud faoliyatiga qilinadigan ta'sir, tahdid yoxud aralashuvlardan xoli bo'lishni, shuningdek, sud funksiyalarining to'g'ri va erkin ijro etilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, u sudyalarning vakolat muddatlari daxlsizligi hamda ularning kasbiy tayyorligi kabi tizimli kafolatlarni ham o'z ishiga oladi.

Shaxsiy mustaqillik – sudyaning muayyan sud ishi bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishdagi mutlaq erkinligidir. Mazkur jarayon sudyaning ish yurituvdagi hujjatlar va dalillarga faqat qonun asosida baho berishini taqozo etib, uning faoliyatiga tashqi tomondan har qanday to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita ta'sir o'tkazishni butunlay istisno qiladi.

Sudyalar mustaqilligi tushunchasiga quyidagicha huquqiy ta'rif berishimiz mumkin. *Sudyalar mustaqilligi* – bu sudyaning huquqiy nizolarni hal etishda faqat qonunga bo'ysunishi, tashqi ta'sir, bosim yoki har qanday turdagi aralashuvlardan xoli holda faqat dalillarga va ichki ishonchiga asoslangan holda qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilishi. Ushbu ta'rif quyidagilarni o'z ichiga oladi: sudyalarning faqat qonunga bo'ysunishi, har qanday bosim yoki ularning ishiga aralashish – sudyalarning qaror qabul qilishida ularga ta'sir o'tkaza olmasligi, sudyalar qaror qabul qilishda faqat dalillarga va ichki ishonchiga tayanishi, shuningdek, qabul qilayotgan qarorlari qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi. Hozirgi zamonda sudyalar mustaqilligi nafaqat huquqiy tamoyil, balki fundamental huquqiy qadriyat sifatida ham talqin qilinmoqda. Chunki insonning adolatli sudlovga bo'lgan huquqi va sudyalar mustaqilligi o'zaro uzviy bog'liqdir. Sudyalar mustaqil bo'lmasa, odil sudlovga ham erishib bo'lmaydi.

Sud hokimiyati mustaqilligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z aksini topgan. Xususan, Konstitutsiyamizning XXIII bobi (130–140-moddalari) Sud hokimiyatiga bag'ishlangan. 130-moddaga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan

amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi" deya ta'kidlangan (Republic of Uzbekistan, 2023). Bundan tashqari, sudyalar mustaqilligiga oid ham alohida Konstitutsiyamizda norma mavjud. Bosh qomusimizning 136-moddasiga ko'ra: "Sudyalar mustaqildirlar, faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishga doir faoliyatiga har qanday tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi. Sudyalar daxlsizdir" (Republic of Uzbekistan, 2023). Ko'rishimiz mumkinki, Konstitutsiyamizda sud hokimiyati va sudyalar mustaqilligiga oid normalar mavjud.

Sudyalar mustaqil bo'lishi uchun ularga ma'lum bir kafolatlar beriladi va bular sudyalar mustaqilligi kafolatlari deya nomlanadi. Sudyalar mustaqilligi kafolatlariga to'xtalar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuniga murojaat qilmasdan ilojimiz yo'q. "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 9-bobi "Sudyalar mustaqilligining asosiy kafolatlari" deb nomlangan. Ushbu Qonunning 63-moddasi "Sudyalarning mustaqilligini ta'minlash" deb nomlanib, unga ko'ra: "Sudyalarning mustaqilligi quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- ularni qonunda belgilangan tartibda lavozimiga saylash, tayinlash, sudyalik vakolatlarini to'xtatib turish va tugatish;
- sudyaning daxlsizligi;
- odil sudlovni amalga oshirishdagi qat'iy tartib-taomil;
- qarorlarni chiqarish chog'ida sudyalar maslahatlashuvining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi;
- sudyaga hurmatsizlik qilganlik, odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyatiga aralashganlik va sudyaning daxlsizligini buzganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlik;
- sudyaga davlat hisobidan uning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berish.
- sudyaning mustaqilligini cheklaydigan qonunchilik hujjatlarini qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi;

– sudya, uning oila a'zolari va ularning mulki davlatning alohida himoyasida bo'ladi" (Republic of Uzbekistan, 2021). Demak, ko'rishimiz mumkinki, sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini ushbu normada keltirilgan kafolatlar tizimidan iborat. Sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin. Sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini – sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishda siyosiy, ma'muriy, moddiy yoki boshqa har qanday tashqi omillarning ta'sirini istisno etish maqsadida davlat tomonidan belgilanadigan va ta'minlanadigan huquqiy himoya choralari tizimi. Ushbu tizimlarga to'xtalsak, birinchisi – institutsional kafolat. Ya'ni sudyalarning qonunda belgilangan tartibda lavozimiga saylash, tayinlash, sudyalik vakolatlarini to'xtatib turish va tugatish. Ushbu kafolatni qonunda belgilangan tartibda ta'minlash Sudyalarning Oliy Kengashi zimmasida. Chunki Sudyalarning Oliy Kengashi sudyalarning korpusini shakllantiradi. Ikkinchisi – shaxsiy kafolat, sudyalarning daxlsizligidir. Ushbu kafolat ham sudyalarning mustaqilligi uchun juda ham zarur hisoblanadi. Uchinchisi – protsessual kafolat. Ya'ni odil sudlovni amalga oshirishdagi qat'iy tartib-taomil. To'rtinchisi – moddiy kafolat, sudyaga davlat hisobidan uning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berish. Sudyalarning mustaqilligining amalga ta'minlanishi ularning munosib darajada moddiy jihatdan ta'minlanishiga bevosita bog'liq. Kam maosh oluvchi sudya korrupsiyaga ko'proq moyil bo'lishi va tashqi ta'sirlarga nisbatan zaif bo'lishi mumkin. Shu sababli sudyalarning ish haqi, ijtimoiy ta'minoti va uy-joy bilan ta'minlanishi kabi masalalar qonun darajasida kafolatlar tizimining ajralmas qismi sifatida belgilangan.

Ushbu kafolatlar ta'minlanmas ekan, sudyalarning to'laqonli mustaqil bo'la olmaydi. Sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini – zamonaviy huquqiy davlat qurilishining poydevori bo'lmish fundamental huquqiy tamoyil va qadriyat sifatida talqin etilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 136-moddasi va "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 63-moddasida mustahkamlangan institutsional, shaxsiy, protsessual va moddiy kafolatlar majmui sudyalarning tashqi ta'sir va aralashuvlardan himoyalanganligini huquqiy jihatdan ta'minlaydi. Biroq mazkur kafolatlar nafaqat qonun darajasida mustahkamlanishi, balki amalga to'laqonli ijro

etilishi zarur. Zero, sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini amalga ta'minlamasdan turib odil sudlovga erishib bo'lmaydi.

Yurqorida ta'kidlanganidek, "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 63-moddasida sudyalarning mustaqilligini ta'minlovchi olti asosiy kafolatlar belgilangan bo'lsa ham, biroq amaliyotda va nazariy tahlillar bir qator muammolarning mavjudligini ko'rsatmoqda. Institutsional kafolatlar nuqtayi nazaridan, sudyalik lavozimiga tanlash va tayinlash tartibida shaffoflikning yetarli emasligi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Garchi sudyalarning korpusini shakllantirish vazifasi Sudyalarning Oliy Kengashi zimmasiga yuklatilgan bo'lsa-da, Kengash tomonidan jami 40 nafar sudyaning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatilganligi diqqatni tortadi. Ushbu ko'rsatkich amaliyotda sudyalarning lavozimi barqarorligi tamoyilining ma'lum darajada zaif yoki nisbiy xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi (Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, 2024).

Bundan tashqari, amaliyotda sud raislari tomonidan boshqa sudyalarga bosim o'tkazish holatlari hali ham to'liq bartaraf etilmagan. O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning Oliy Kengashi tomonidan 2024-yil 15-mayda tasdiqlangan Sudyalarning odobi kodeksida sudya faqat o'z vakolatlarini amalga oshirishda mustaqil bo'lishi va unga ta'sir o'tkazilishiga yo'l qo'yilmasligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 236-moddasida tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoiy javobgarlik asosi sifatida belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda sud ishlariga noqonuniy aralashish holatlari hali-hanuz uchrab turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-sonli Farmonida bunday qilmishlar uchun javobgarlikni kuchaytirish zarurligi qayd etilgan. Xususan, unda sudyalarning faoliyatiga har qanday shaklda ta'sir o'tkazish, shu jumladan, davlat idoralari va mansabdor shaxslarning aralashuvlariga butunlay barham berish sharti alohida ta'kidlangan (President of Republic of Uzbekistan, 2023).

Shuningdek, ushbu Farmonga ko'ra sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini mustahkamlash, sudga hurmatsizlik qilish hamda sud ishiga aralashish holatlarining oldini olish bo'yi-

cha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish vazifalari belgilangan. Ko'rinib turibdiki, ushbu Farmon sudyalarning mustaqilligining institutsional-huquqiy kafolatlari tizimini rivojlantirishda hamda odil sudlovni ta'minlashda fundamental ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Sudyalar mustaqilligining muhim kafolatlari-dan biri – sudyaning oila a'zolari hamda ularning mol-mulki davlat himoyasida bo'lishining belgilanganligidir. Biroq amaliyotda ushbu himoyani amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmlari yetarlicha tartibga solinmagan. Chunonchi, amaldagi qonunchiligimizda sudyaning oila a'zolariga nisbatan bosim o'tkazganlik yoki tahdid qilganlik uchun to'g'ridan to'g'ri ma'muriy yoxud jinoiy javobgarlik choralari nazarda tutilmagan.

Xorijiy mamalakatlarni sudyalarning mustaqilligining kafolatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, Qozog'iston Respublikasida 2000-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Sud tizimi va sudyalarning maqomi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonunidan farqli o'laroq, Konstitutsiyaviy qonun maqomiga ega bo'lib, sudyalarning maqomini yanada mustahkam kafolatlaydi. Qozog'istonning ushbu Konstitutsiyaviy qonunining 26-moddasida sudyalarning mustaqilligining quyidagi kafolatlari belgilangan bo'lib, bular: odil sudlovni amalga oshirishga doir qonunchilik tartibi, sudyalarning faoliyatiga aralashganlik va sudga hurmatsizlik qilganlik uchun qonuniy javobgarlik, sudyaning daxlsizligi, maslahatlashuvning sir tutilishi, sudyaning moddiy va ijtimoiy ta'minoti, muayyan ishlar bo'yicha sudyaning hisobdor emasligi (Republic of Kazakhstan, 2000). Yuqoridagi ro'yxatni O'zbekiston qonunchiligi bilan solishtirgan holda, kafolatlar ro'yxati o'xshash ekanligini ko'rishimiz mumkin. Biroq muhim farqlar ham mavjud. Qozog'istonda sudyalarning maqomini tartibga soluvchi alohida Konstitutsiyaviy qonunning mavjudligi, kafolatlarning yuridik kuchini oshiradi va ularni oddiy qonun orqali o'zgartirib bo'lmaydigan darajada mustahkamlaydi.

Qozog'iston (Republic of Kazakhstan, 2000), Germaniya (Federal Republic of Germany, 1961), Fransiya (Republic of France, 1958) va boshqa ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini alohida qonun, ya'ni sudyalarning maqomini

alohida maxsus qonun orqali tartibga solish eng samarali yondashuv hisoblanadi. Bunday qonun sudyalarning huquqlari, majburiyatlari, kafolatlari, javobgarligi, moddiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasini yaxlit tizimda mustahkamlaydi. "Sudyalarning maqomi to'g'risida"gi alohida qonun qabul qilish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: sudyalarning institutiga oid barcha me'yorlarni bitta hujjatda to'plash; kafolatlarni yuqori darajadagi yuridik normativ hujjatda mustahkamlash; xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish; sudyalarning tanlovi, malakasini oshirish va baholash mezonlarini yaxlit belgilash; sudyalarning lavozimidan ozod qilish asoslarini aniqlashtirish.

Shuningdek, Qozog'iston Respublikasi tajribasidan kelib chiqib, sud tizimini moliyalashtirishning quyi chegarasini qonun darajasida belgilash kerak. Sud tizimiga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'ning minimal ulushi (masalan, byudjetning kamida 0,5–1 foizi)ni qonunchilikda mustahkamlash sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sudyalik lavozimiga tanlash jarayonining shaffofligini ta'minlash maqsadida quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi: sudyalik lavozimiga da'vogar nomzodlar va ularning imtihon (baholash) natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaviy ravishda e'lon qilib borish; tanlov va suhbat jarayonlarining barcha bosqichlarida videoyozuv tizimini qayd etish va ularning arxivini saqlash; nomzodlarning baholash jarayoniga mustaqil ekspertlar (akademik doira vakillari, advokatlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari)ni jalb etish; tanlov natijalari yuzasidan har bir nomzod bo'yicha asoslantirilgan yozma xulosa chiqarish majburiyatini belgilash.

Fikrimizcha, "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 63-moddasida sudya oila a'zolari himoyasi deklarativ tarzda belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda ushbu himoyani amalga oshirishning aniq mexanizmlari tartibga solinmagan. Shu bois, sudyaning oila a'zolariga nisbatan har qanday shaklda g'ayriqonuniy ta'sir o'tkazish harakatlarini sudyaning o'ziga ta'sir o'tkazish bilan teng darajadagi jinoiy javobgarlik asosi sifatida qonunchilikda mustahkamlash lozim.

Xulosa

Yuqoridagi fikrlarimizni xulosalaydigan bo'lsak, tadqiqot jarayonida sudyalarning musta-

qilligi va uni ta'minlash kafolatlarining tushunchalariga ta'rif berildi. Shuningdek, sudyalarda mustaqilligining ikki asosiy turi: institutsional va shaxsiy mustaqillik kabi turlariga to'xtalindi. Institutsional mustaqillik sudning qonunchilik va ijro hokimiyatidan tashkiliy-huquqiy jihatdan ajralgan holda faoliyat yuritishini anglatadi, shaxsiy mustaqillik esa sudyaning har qanday tashqi bosim va ta'sirlardan xoli bo'lgan holda qaror qabul qilishini ifoda etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 130-moddasi va 136-moddasi hamda "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 63-moddasi tahlili tizimi shuni ko'rsatdiki, milliy qonunchiligimizdagi sudyalarda mustaqilligining kafolatlari tizimi institutsional, shaxsiy, protsessual va moddiy kafolatlardan tashkil topgan bo'lib, bu kafolatlar o'zaro uyg'un mexanizm tarzida ishlashi lozim. Biroq tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammo shundaki, ushbu kafolatlar qonunchilikda mustahkamlangan bo'lsa-da, amaliyotda ularning ro'yobga chiqishi hamon yetarlicha darajada to'liq ta'minlanmayapti. Xususan, sudyalarni lavozimga saralash jarayonida shaffoflikning yetarli emasligi, sud raislari tomonidan sudyalarga nisbatan bosim o'tkazilishi va sud ishlari

tahliliga (yoki hal etilishiga) aralashish holatlari buning yaqqol misolidir.

Bundan tashqari, olib borilgan qiyosiy-huquqiy tahlillar Qozog'iston (2000-yil), Germaniya va Fransiya tajribasi asosida sudyalarda mustaqilligi kafolatlarini alohida maxsus hujjat – "Sudyalarda maqomi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun orqali tartibga solish eng samarali yondashuv ekanini ko'rsatadi. Xususan, Qozog'iston Respublikasining 2000-yil 25-dekabrda "Sud tizimi va sudyalarda maqomi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni sudyalarda mustaqilligi kafolatlarining yuridik kuchini oshirib, ularni oddiy qonunlar vositasida o'zgartirib bo'lmaydigan darajada mustahkamlaydi. Shu bois O'zbekiston Respublikasida ham "Sudlar to'g'risida"gi Qonun doirasidagi alohida boblar bilan cheklanib qolmasdan, sudyalarning huquqiy maqomini yaxlit tartibga soluvchi mustaqil qonun qabul qilish zaruriyati yuqorida asoslab berildi.

Sudyalarda mustaqilligi kafolatlarini yetarli darajada ta'minlamasdan turib, huquqiy davlatni barpo etib bo'lmaydi. Zero, insonning adolatli sudlovga bo'lgan huquqi va sudyalarda mustaqilligi o'zaro uzviy bog'liq tushunchalardir.

REFERENCES

- Aripov, D. U. (2022). *Sud hokimiyati mustaqilligini tashkiliy-huquqiy takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari* [Modern trends in organizational and legal improvement of judicial independence] (Doctor of Science dissertation). Academy of the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan.
- Aristotel. (1983). *Sochineniya* [Essays] (A. I. Dovatur, Ed. & Trans.). Mysl.
- Ervin, S. J., Jr. (1970). Separation of powers: Judicial independence. *Law and Contemporary Problems*, 35(1), 108–127. <http://scholarship.law.duke.edu/lcp/vol35/iss1/8>
- Federal Republic of Germany. (1961, September 8). *Deutsches Richtergesetz (DRiG)* [German Judges Act]. Bundesministerium der Justiz. <https://www.gesetze-im-internet.de/drig/>
- Kalinina, N. S. (2014). *Pravovye i organizatsionnye osnovy realizatsii sudebnoi vlasti v Rossiiskoi Federatsii* [Legal and organizational foundations of the exercise of judicial power in the Russian Federation]. Yurait.
- Locke, J. (1988). *Sochineniya* [Essays]. Mysl.
- Madvaliyev, A. (Ed.). (2006). *O'zbek tilining izohli lug'ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. National Encyclopedia of Uzbekistan.
- Mukhitdinova, F. F. (2012). *Stanovlenie i razvitie sudebnoi vlasti v Respublike Uzbekistan* [Formation and development of judicial power in the Republic of Uzbekistan] (Doctoral dissertation). Tashkent State Institute of Law.
- President of the Republic of Uzbekistan. (2023, January 16). *Decree "On additional measures to further expand access to justice and increase the efficiency of court activities"* (No. DP-11). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6361730>
- Republic of France. (1958, December 22). *Ordinance enacting the organic law on the status of the judiciary* (No. 58-1270). Légifrance. <https://www.legifrance.gouv.fr/loda/id/JORFTEXT000000339303>

Republic of Kazakhstan. (2000, December 25). *Constitutional Law “On the judicial system and the status of judges of the Republic of Kazakhstan”* (No. 132-II). Paragon. https://prg.kz/document/?doc_id=1021164&pos=11;268

Republic of Uzbekistan. (2021, July 28). *Law “On courts”* (No. LRU-703). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/5534839>

Republic of Uzbekistan. (2023). *Constitution of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6451053>

Supreme Court and Supreme Economic Court of the Republic of Uzbekistan. (1996, December 20). *Joint Resolution “On compliance with legislation by courts when discussing criminal cases in the court of first instance”* (No. 1/60). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/1442202>

Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan. (2024). *Bulletin*. <https://sudyalaroliykengashi.uz/>

Vile, M. J. C. (1998). *Constitutionalism and the separation of powers* (2nd ed.). Liberty Fund. <https://oll.libertyfund.org/titles/vile-constitutionalism-and-the-separation-of-powers>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 3-SON

VOLUME 6 / ISSUE 3 / 2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.3>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence>